ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Ne’matova Ruxsora Mirkomiljon qizi

Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti 4 – kurs talabasi

Ilmiy rahbari : Sayidolimov Javohir Baxtiyorjon o‘g‘li

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

VADUD MAHMUDNING MUNAQQIDLIK FAOLIYATI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XX asr birinchi choragida Turkiston madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan , eng muhimi , adabiyotshunoslik va tanqidning tamal toshini qo‘yganlardan biri hisoblangan Vadud Mahmudning shaxsiyati va faoliyati haqida so‘z yuritiladi . Shu bilan bir qatorda , munaqqidning mumtoz adabiyotimiz va uning siymolariga bag‘ishlangan maqolalari va publitsistik maqolalari haqida fikr yuritiladi .

Kalit so’zlar: Vadud Mahmud , Siddiqiy Ajziy , adabiy tanqid , ijtimoiy fikr , millat tushunchasi , ma’rifatparvarlik , jadid adabiyoti , publitsistika , bolalar tarbiyasi , maorif , badiiylik va uslub , XX asr boshlaridagi adabiyot , Samarqand adabiy muhiti

КРИТИЧЕСКИЕ РАБОТЫ ВАДУДА МАХМУДА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается личность и творчество Вадуда Махмуда, сыгравшего важную роль в культурной жизни Туркестана в первой четверти XX века и, что особенно важно, считающегося одним из основателей литературоведения и критики. Кроме того, анализируются статьи критика, посвященные нашей классической литературе и ее деятелям.

Ключевые слова: Вадуд Махмуд, Сиддики Аджзий, литературная критика, социальная мысль, концепция нации, Просвещение, литература джадидов, журналистика, воспитание детей, образование, искусство и стиль, литература начала XX века, литературная среда Самарканда.

WADUD MAHMUD'S CRITICAL WORK

ABSTRACT

This article discusses the personality and work of Vadud Mahmud, who played an important role in the cultural life of Turkestan in the first quarter of the 20th century and, most importantly, is considered one of the founders of literary studies and criticism. In addition, the critic's articles dedicated to our classical literature and its figures are discussed.

Keywords: Vadud Mahmud, Siddiqi Ajziy, literary criticism, social thought, concept of nation, enlightenment, Jadid literature, journalism, child education, education, artistry and style, literature of the early 20th century, Samarkand literary environment.

KIRISH

XX asr birinchi choragida Turkiston madaniy hayotiga fidoyi ziyolilarning ulug‘ xizmatlari ko‘rk bag‘ishlab turadi . Vadud Mahmud shu avlodning bir vakilidir .Vadud Mahmud 1898 – yilda Samarqand okrugining Yuqori Darg‘am tumaniga qarashli Tayloq qishlog‘ida tavallud topgan . Otasi Mahmud Pirmuhammad imom bo‘lgan . Onasi Anbara esa uyda bolalari tarbiyasi bilan shug‘ullangan. Vadud Mahmud dastlab Samarqandda Abduqodir Shakuriy maktabida , so‘ngra Ufadagi Oliya madrasasida (1917-1918), Samarqand pedkursida (1918), Moskvadagi V. Bryusov nomli Oliy Adabiyot institutida (1925-1926) tahsil olgan. Toshkentdagi SAGUning iqtisod fakultetiga (1923 y.) erkin tinglovchi sifatida qatnagan . Vadud Mahmud faoliyatining ma’lum bir qismi Tojikiston Respublikasi FA Rudakiy nomidagi Til va adabiyot instituti bilan bog‘liq. Shu dargohda ilmiy xodim bo‘lib ishlagan Vadud Mahmud “Farhangi zaboni tojiki” ni tuzishda qatnashadi, mumtoz sharq she’riyati tadqiqi bilan shug‘ullanadi, xotiralar yozadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida jadid adabiyoti, adabiy tanqid tarixi hamda XX asr boshlaridagi Turkiston madaniy hayotiga oid ilmiy manbalar tahlil qilindi. Xususan, B. Nazarov, A. Rasulov, Q. Qahramonov, Sh. Axmedova tomonidan yaratilgan “O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi” asari, shuningdek, Bahodir Karimning Vadud Mahmud hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlari muhim ilmiy manba sifatida xizmat qildi. Bundan tashqari, Vadud Mahmudning “Tanlangan asarlar” to‘plami hamda uning “Turk shoiri Ajziy”, “Adabiy tanqidga bir nazar”, “Alisher Navoiy” kabi maqolalari bevosita tahlil manbai sifatida o‘rganildi. Ushbu manbalar orqali munaqqidning adabiy-estetik qarashlari, tanqidchilik prinsiplari va publitsistik faoliyati yoritildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Vadud Mahmudning ijodi adabiy tanqidchilik tarixining muayyan davrini , xususan , Cho‘lpon va Fitratdek zabardast ijodkorlar to‘g‘risidagi dastlabki adabiy – tanqidiy fikrlarni tasavvur qilish jihatidan ham muhim ahamiyatlidir . Adabiyot maydoniga Samarqand adabiy muhiti orqali 20 – yilllar arafasida kirib kelgan Vadud Mahmud bu jarayonga juda faol aralashadi . Mahmudxo‘ja Behbudiy , Abduqodir Shakuriy , Vasliy , Siddiqiy Ajziy , Sadriddin Ayniy , Hoji Muin , Abdurauf Fitrat va Tamhid Samarqandiy singari muharrir , shoir va muallimlar muhitida tarbiya topadi . Uning asarlari Vadud Mahmudiy , Vadud Mahmud o‘g‘li , V.M , Vov imzolari bilan “Qizil bayroq” , “Mehnatkashlar tovushi” , “Kambag‘allar tovushi” , “Zarafshon” , “Turkiston” , “Inqilob” , “Maorif va o‘qituvchi” , “Yer yuzi” va boshqa vaqtli matbuot sahifalarida bosilib turdi . [1] Vadud Mahmud matbuot sahifalarida nafaqat adabiyotshunoslikka oid tanqidiy maqolalari bilan balki publitsistik maqolalari bilan ham o‘z o‘rniga ega edi .

Vadud Mahmud mumtoz sharq adabiyoti namoyondalari , mavjud adabiy jarayon xususida “Cho‘lponning”Buloqlari” i “ (1923) , “Hind ixtilochilari”(1923) , “Turk shoiri Ajziy”(1924) , “Adabiy tanqidga bir nazar” (1924) , “Alisher Navoiy”(1925) , “Fuzuliy Bag‘dodiy” (1925) kabi qator qimmatli maqolalar yozgan . Publitsistik maqolalari sirasiga esa “ Bolalar tarbiyasi” , “ Maorif ishlari “ , “Maktablarda ahvol” “Maorifimiz” , “ Majburiy o‘qish” kabi maqolalarini kiritishimiz mumkin .

[1] Bahodir Karim. Jadid munaqqidi Vadud Mahmud. – Toshkent . Universitet , 2000.

Vadud Mahmud xilma – xil janr va mavzularda asarlar yozgan bo‘lsa ham 20 – yillar adabiy jarayonida , asosan , munaqqid – adabiyotshunos sifatida tanilgan . Vadud Mahmud adabiy – tanqidiy maqolalarida asarning g‘oya va mazmuniga emas , avvalo , uning nafisligi va nozik yasalishlariga , ya’ni badiiyligi , shakli , uslubi va tiliga e’tiborini qaratdi . Shunga muvofiq talabi ham nihoyatda yuksak bo‘lgan . She’rdagi musiqiy ohang , ruhiy yuksalish , chuqur dard va san’atkorona mukammallikni qadrladi . Vadud Mahmud tabiatidagi jo‘shqinlik , maqolalaridagi izchillik , ilmiy xolislik ijod ahlining e’tiborini tortdi . Zamondoshlari uning bu fazilatlarini ijobiy baholaydilar .

Vadud Mahmudning “Turk shoiri Ajziy” maqolasi 20-yillar tanqidchiligida adabiy portretning yetuk namunasi sanaladi. Maqola mazmuni uch kichik bo‘limga ajratilgan bo‘lib, har bir bo‘limda shoirning ichki dunyosi, ishqi, ijtimoiy g‘oyalari tahlil qilinadi.U Avval Ajziyning hayoti, adabiy maktabi, g‘azal poetikasi haqida fikr bildiradi. Ammo Vadud Mahmudni boshqalardan ajratib turuvchi asosiy jihat —Ajziyning ishqini tasniflashidir. U shunday deydi:“Ajziyning ishqi na tasavvuf ishqi va na zohiriy ishqdur. Uning ma’shuqi — xalqdir, millatdir.”Bu fikr tanqidchining millatparvarlik ruhiga, shoirni asar orqali xalq dardiga bog‘lay olish mahoratiga dalildir.Vadud Mahmud Ajziy she’rlaridagi dard, muhabbat, xalqparvarlikni faqat his-tuyg‘u bilan emas, balki ijtimoiy- estetik kontekstda ham tahlil qiladi. Maqola hissiyot, obrazlilik, badiiy ta’riflar bilan to‘yingan. Adabiyotshunos Bahodir Karim ta’kidlaganidek: “Vadud Mahmud Ajziy ijodining adabiy negizini ilmiy-estetik jihatdan chuqur yoritdi.”Bu maqola munaqqidning portret janrida yuksak mahoratga egaligini tasdiqlaydi.

Vadud Mahmud Ajziy she’rlarini “Ajziyning ijtimoiy fikri” bo‘limida uning o‘zini ham qiynagan ana shu ijtimoiy muammolarga uyg‘un tarzda tahlil qiladi. Ijtimoiy hayotdagi voqeliklarning shoir ijodida in’ikos etishi xususida to‘xtalib: “U har vaqt elning qonli panjalar ostida qolishidan zorlanadir, har tomonga qarasa, shuni ko‘radir, har voqeadan shuni istixroj etadir” , deb yozadi.[2] Vadud Mahmud Ajziy she’rlarini “ijtimoiy fikr” nuqtai nazaridan o‘rganar ekan, shoir ijodida jamiyatdagi og‘ir voqeliklar qanday aks etganini ko‘rsatadi. Uning ta’kidlashicha, Ajziy doimo xalqning zulm ostida qolganidan iztirob chekadi va har bir voqeadan shu ma’noni chiqaradi. Bu esa shoirning ijtimoiy dard bilan yashaganini anglatadi.

Ajziy ichki olamidagi zamonaga nisbatan norozilik tuyg‘ulari, jamiyatni isloh etish kayfiyati an’anaviy obrazlarni yangicha ma’noda qo‘llash majburiyatini yuzaga keltiradi. Shunga binoan u yulduzlarni el bag‘riga otilgan toshga, bulutni ma’rifat nurlarini to‘suvchi devorga, qizil lolani qip-qizil qonga mengzatadi. Vadud Mahmud o‘z maqolasida Siddiqiy Ajziy nazarda tutgan “millat” tushunchasiga ham alohida izoh berib o‘tishni ma’qul topadi. “Biz Ajziyning “millat” degan tarzi talaqqiysidan anglaymizkim, bu kundagi tarzi iste’molidan boshqa bir ma’no beradur, uningcha, “islom” bir millatdir, har bir “musulmon” o‘z millatining bir a’zosidir. Bu tarzi talaqqiy yolg‘uz Ajziyda emas, bu davrda yashagan ko‘b kishilarda ko‘riladir” . “Millat taqdiri” — bu so‘z birikmasi shoirni ham, talqinchini ham befarq qoldirmadi. Siddiqiy Ajziy millat qismatini o‘ylab, ijodiy-amaliy yumushlarga berildi, maktab, maorif ishlari bilan mashg‘ul bo‘ldi, o‘z zamonasining ma’naviy-ruhiy kayfiyatini ifodalovchi she’rlar bitdi. Vatani ozod bo‘lishini istagan siymolarni, millati yo‘lida jon kuydirgan kimsalarni Vadud Mahmud qadrlay bildi.

Vadud Mahmudning nafaqat o‘tmishning , hozirning , balki kelajakning ham dolzarb mavzusini yoritib beruvchi publitsistik maqolasi hisoblangan “Bolalar tarbiyasi” o‘zining beqiyos ahamiyatiga ega . Jamiyatimizda ushbu masala doimo o‘z ahamiyatini saqlab qola oladi .

[2] Vadud Mahmud . Turk shoiri Ajziy . – Inqilob . 1924, 11-12-sonlar

“Bolalarimizning ma’naviy tarbiyasiga kelsak , mundan ham yomon hollarga uchraymiz , - deb uqtiradi Vadud Mahmud “Bolalar tarbiyasi” nomli maqolasida . – Bolalarni qo‘rqitadigan “ana ola po‘stak keldi , ana ola bo‘ji tovushi kelayotibdir , o‘risga beray olib ketsun bo‘lmasa “ , degan so‘zlarimiz bolalarga yomon ta’sir qiladir . Ma’lumki , bolalarni qo‘rqitib tarbiyalash faqat uning shaxsiy psixologiyasigagina ta’sir qilib qolmaydi . Masalaning ijtimoiy zarari ham xavflidir . Qo‘rqitib tarbiyalangan avlod ma’lum bir tarixiy jarayonda na o‘zining haq – huquqini talab qila oladi , na bir o‘zining erkin fikrini ochiq ayta oladi .

Bundan tashqari , Vadud Mahmud ushbu maqolasida bolani beshikka bog‘lashga qo‘shilmaydi . Ya’ni hali boshi qotib ulgurmagan bolani uxlashi uchun tebratish uni boshini aljitmakdan boshqasiga yaramaydi degan fikrlarni aytib o‘tadi . Shuningdek , bolalarni ovqat vaqtini tayin qilmaslik nihoyatda yomon bir qiliqdir deb ta’kidlaydi . “Hazm” kuch bilan bo‘lar , me’dani kuchsizlantirar . Kishining sog‘ligiga zarar beradir …” degan fikrlarni keltirib o‘tadi . Albatta , Vadud Mahmudning bu fikrlari tibbiyotda ham o‘z isbotini topgan deyishimiz mumkin .

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Vadud Mahmud XX asr boshlaridagi Turkiston adabiy-madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan munaqqid va ma’rifatparvar sifatida namoyon bo‘ladi. Uning ijodi orqali o‘sha davr adabiy jarayoni, xususan, Cho‘lpon, Fitrat va Siddiqiy Ajziy kabi ijodkorlarning dastlabki bahosi shakllanganini ko‘rish mumkin. Vadud Mahmud asarlarida badiiylik, uslub va til masalalariga yuqori talab qo‘ygan holda adabiy tanqidni yangi bosqichga olib chiqqan. Ayniqsa, uning “Turk shoiri Ajziy” maqolasi orqali shoir shaxsiyati va ijodi chuqur tahlil qilinib, undagi ijtimoiy dard, millatparvarlik va xalqparvarlik g‘oyalari ochib beriladi. Shuningdek, publitsistik maqolalarida jamiyat uchun dolzarb bo‘lgan ta’lim-tarbiya, ma’rifat masalalarini ilgari surib, amaliy ahamiyatga ega fikrlarni bildiradi. Umuman olganda, Vadud Mahmudning ilmiy va publitsistik merosi nafaqat o‘z davri, balki bugungi kun uchun ham muhim bo‘lib, uning qarashlari jamiyat taraqqiyoti va yosh avlod tarbiyasida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. B. Nazarov, A. Rasulov, Q. Qahramonov, Sh. Axmedova. O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. – Toshkent . 2012

2. Vadud Mahmud . Tanlangan asarlar . - Toshkent . Ma’naviyat , 2007 .

3. Bahodir Karim. Jadid munaqqidi Vadud Mahmud. – Toshkent . Universitet , 2000.

4. Vadud Mahmud . Turk shoiri Ajziy . – Inqilob . 1924, 11-12-sonlar